

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BEKIMBETOVA GULNORA MARATOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION LOYIHALARNING  
EKSPERTIZASINI O‘TKAZISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Bekimbetova Gulnora Maratovna**

О‘zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarning ekspertizasini o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

**Бекимбетова Гулнора Маратовна**

Совершенствование методологии проведения экспертизы инвестиционных проектов в Республике Узбекистан ..... 31

**Bekimbetova Gulnora Maratovna**

Improving the methodology for conducting the expertize of investment projects in the Republic of Uzbekistan..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BEKIMBETOVA GULNORA MARATOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION LOYIHALARNING  
EKSPERTIZASINI O‘TKAZISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Iqt449 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim tarmog'ida ([www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Karlibaeva Raya Xojabaevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Burxanov Aktam Usmanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Zaynalov Jaxongir Rasulovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamidulin Mixail Borisovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239 43-51, e-mail: [tdu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonida investitsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tuzilmasining majburiy elementlaridan biri sifatida o'tgan asrning 70-yillarida qo'llanila boshlagan. «Rivojlangan mamlakatlar byudjetini shakllantirish va amalga oshirish amaliyotida dasturiy-maqсадli yondashuv doirasida ekspert texnologiyalarining paydo bo'lishi 50-yillarning oxiri va 60-yillarning boshlariga to'g'ri keladi va ular hozirgi kunda qadar takomillashtirilmoqda va keng qo'llanilmoqda»<sup>1</sup>. Shu bilan birga, dunyo iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlarida investitsiyalar rivojlanishining ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Bunda, har xil turdagi loyihalar soni ortib bormoqda va ularning natijasini cheklangan xarajatlar ko'rsatkichlari bilan baholash tobora qiyinlashmoqda. Loyiha natijalarini aniqlashdagi xatolar tufayli amalga oshirish uchun qabul qilingan ko'plab loyihalar o'z maqsadlariga erisha olmasligi sababli, hozirda investitsion loyihalarning ekspertizasini o'tkazish metodologiyasini takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy davri rivojlanishning ekstensiv omillarini tugatishga qaratilgan yondashuv bilan tavsiflanadi. Demak, kelgusidagi o'sish moliyaviy resurslardan davlat darajasida ham, barcha tarmoqlar korxonalar darajasida ham yanada samarali foydalanishni talab etadi. Yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha qarorlar davlat va korxonalar darajasida qabul qilinadi. Shu bilan birga, ushbu loyihalarni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholash hisobga olinadi va ular moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlashga intiladi. Loyihalarni amalga oshirish imkoniyati va istiqbollari to'g'risida obyektiv ma'lumot olish uchun davlat ham, investorlar ham ekspertizadan foydalanadilar. Ekspertiza loyihalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan qarorlarning asosligini baholash usuli sifatida muhim hisoblanadi. Shu maqsadda obyektiv baho olish va xavflarni minimallashtirish uchun loyihalarni ekspertizadan o'tkazish mazkur ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barcha jabhalariga xorijiy va milliy investorlarni jalb etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xususan, bozor mexanizmlarini chuqur joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. "...O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash va iqtisodiy taraqqiyotga keng ko'maklashish orqali mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish, jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish iqtisodiyot sohasidagi ustuvor vazifalarimizdan biridir..."<sup>2</sup>. Shu bilan birga, loyihalar bo'yicha loyihaoldi va loyiha hujjatlari belgilangan muddatlarda sifatli ishlab chiqilishi, kelishilishi, tasdiqlanishi, ekspertizadan o'tkazilishi, shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlar hamda tashkilotlar bilan zarur shartnomalar tuzish masalalari belgilangan tartibda ko'rib

<sup>1</sup> Eric E. Otenyo, Nancy S. Lind "Comparative public administration: the essential readings", Research in public policy analysis and management Volume 15., 2006.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Biz birgalikda ,erkin, demokratik va obod O'zbekiston davlatini quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

chiqilishiga alohida urg‘u berilgan<sup>3</sup>. Shundan kelib chiqib, ilmiy asoslashning dolzarbligini belgilaydigan, ayniqsa, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ekspertiza mexanizmini qonunchilikda mustahkamlashga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni asoslash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, ekspertiza faoliyati o‘z vazifalari va xususiyatlariga ega bo‘lganligi sababli, ko‘pincha, ekspert texnologiyalarini iqtisodiy faoliyatning muayyan obyektlari va sohalariga moslashtirish, shu jumladan, investitsiya dasturlari sifati va samaradorligini tahlil qilish va baholash zarurat sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 14-martdagi PQ–2831-son “Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida loyihalash ishlari samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 9-apreldagi PQ-4273-son “Investitsiya va investitsiyalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 26-iyuldagi PQ-332-son “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 1013-son qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarning ekspertizasini o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy iqtisodchilar: U.Sharp, G.Aleksander, J.Beyli, Set.B.Barhes, G.Birman, Y.Brigham, M.Erxardt, S.Shmidt, L.Krushwitz, V.Berens, P.M.Xavranek, V.V.Sheremet, V.D.Shapiro, V.M.Pavlyuchenko, va boshqalar ilmiy ishlar olib borishgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda “ 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-459-son qarori,

<sup>4</sup> Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции. – М.: 2018. - 1028 с; Холт Роберт Н., Барнес Сет. Б. Планирование инвестиций. Учебное пособие, перевод с англ. – М.: Академия народного хозяйства: Дело, 1994. – 116 с; Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов // Пер. с англ. под ред. Л.П.Белых. – М.: 2003; Крушвиц Л. Финансирование и инвестиции. Неоклассические основы теории финансов. Учебник. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 381 с; Фабоцци Френк Дж. Управление инвестициями: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2000. - 930 с.; Брейли Р. Принципы корпоративных финансов. Майерс С. 2-е русск. изд. (пер. с 7-го междунар. изд.) – М.: 2008. – 1008 с.; Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. 10-е изд. – Санкт-Петербург, 2009. – 960 с.; Ковалев А.М. Финансовый менеджмент: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: НИЦ ИНФРА-М.: 2013. – 336 с.; Алешин А.В., Аньшин В.М. и др. Управление проектами:

Investitsion loyihalar ekspertizasi nazariyasi: V.M.Glushkov, V.V.Podinovskiy, S.D.Beshelev, Yu.V.Sidelnikov, N.N.Kitayev, Yu.N.Tyurin, V.N.Burkov, Yu.I.Degtyarev, G.M.Dobrov, E.P.Rayxman, V.A.Kutuzov, I.A.Nikolayev, B.G. Litvak, A.I.Orlov, D.S.Shmerlinglarning asarlarida ishlab chiqilgan.

Investitsion loyihalar samaradorligini baholashni takomillashtirish masalalari to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita quyidagi mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan: D.G'ozibekov, Sh.Toshmatov, Sh.Rajabboyev, A.Vahobov, Sh.Xojiboyev, T.Malikov, N.Xaydarov, B.Toshmurodova, S.Elmirzayev, N.Tursunova, M.Xamidulin, V.Kotov, R.Karlibayeva, A.Islomqulov, E.Nasirov, B.Sattarov, A.Jurayev, D.Xo'amqulov, B.Mamatov, O.Astanaqulov, R.Saidov, X.Asatullayev, A.Xashimov, Sh.Majidov, D.Begmatovalar<sup>5</sup>.

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, asosan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ularda investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirishning faqat ayrim toifalari va yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Ularning ishlarida sanoatning turli tarmoqlari doirasidagi investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq amaliy masalalar va ularni ijobiy hal etish omillari ko'rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish" yonalishidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

---

фундаментальный курс. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 500 с.; Беренс В., Хавранек П.М. Руководство по оценке эффективности инвестиций Пер. с англ. перераб. и дополн. изд. – М.: Интерэксперт, Инфра-М, 1995. – 528 с.;

<sup>5</sup> G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – 330 b.; Toshmatov Sh.A., Rajabboyev Sh.R. Moliyalashtirishning innovatsion usullari. Monografiya. – T.: «Moliya», 2015. – 160 b.; Vaxobov A.V., Xajibayev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – 180 b.; Malikov T.S., Xaydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2009. – 556 b.; Toshmurodova B., Elmirezayev S., Tursunova N. Moliyaviy menejment. Uchebник. – T.: «Iqtisod-moliya». 2017. – 338 b.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Дисс....д-ра эк.наук. – Т.: 2008; Котов В.А. Совершенствование деятельности банков по инвестиционному обеспечению стратегически важных предприятий Узбекистана. – Т.: «Молия», 2011. – 320 с.; Karlibayeva R. Tijorat asosida faoliyat olib boruvchi subyektlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash.// «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019. – B.1-8; Islamkulov A.X., Sattarov B.K. Moliyaviy risklarni baholash. TMI. – T.: «Iqtisod-moliya», 2017. – 160 b.; Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili: O'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2003. – 256 b.; Astanakulov O.T., Asatullayev X.S. Анализ и оценка эффективности инвестиционных проектов // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnal №3, июнь, 2018; Saidov R. at all. The Role of the Investment Environment in Attracting Reserves to the Economy of Uzbekistan. <http://solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/1169>; Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2014. – 248 b.; Elmirezayev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini takomillashtirish i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini avtoreferati. – T.: 2018; Begmatova D.B. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish. i.f.fal.dok (PhD) ilmiy dar. olish uchun tayyorlangan diss.avtoreferati. – T.: 2017.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirishga yonaltirilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishning nazariy jihatlari, rollari, vazifalari va maqsadlarini tadqiq etish;

investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishning huquqiy asoslarini oshkor qilish;

investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish usullarini o‘rganish;

investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasi bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish;

riskning tahlili yoki investitsiya loyihalarini “ehtimolli modellashtirish”,

investitsiya loyihalari samaradorligini tekshirishda risklar metodologiyasini tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirishning asosiy masalalari bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish, ularning sifatini baholash va yaxshilash, xavflarni kamaytirish va ularni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli va strukturaviy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya, statistik tahlil va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra loyihaning kelgusida nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy, ekologik va innovatsion jihatdan foydali bo‘lgan alohida investitsiyaviy sifatlarini bilimning tegishli sohalaridagi yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda amalga oshiriluvchi chuqurlashtirilgan tahlil qilish va baholash sifatidagi “investitsiya loyihasi ekspertizasi”ga asoslangan ekspertologiyaning yangi yo‘nalishini, ya‘ni ekspertiza tushunchalari, tamoyillari, funksiyalari va usullari majmuini o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy ekspertologiyani joriy etish taklifi asoslangan;

investitsion loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishda zarur hollarda davlat va nodavlat tashkilotlari, shu jumladan loyiha institutlari, muhandislik-konsalting kompaniyalari, ilmiy va ta‘lim muassasalari, shuningdek, xalqaro va mahalliy tashkilotlar mutaxassislarini shartnoma asosida jalb etish maqsadida ekspertiza predmeti tavsifi, murakkablik darajasi, loyiha qamroviga ko‘ra muvofiq keluvchi ekspertlar guruhining muntazam yangilanib turuvchi oldindan shakllantirilgan ro‘yxati (bazasi)ni yo‘lga qo‘yish taklifi asoslangan;

loyiha oldi investitsiya hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi qolgan qismini moliyalashtirish manbalaridan qat‘i nazar, qiymatining kamida 70 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarga nisbatan tatbiq etilmasligi asoslangan;



investitsion loyihaning moliyaviy samaradorligini baholashda asosiy belgilovchilari omil sifatida moliyaviy risklarni, kutilayotgan o'zgarishlarning tabiati va doirasini hamda xavfni kamaytirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlarni reyting usulida baholash asoslangan;

«O'zmetkombinat» AJda ferrosilikon va ferrosilomanganeslarni ishlab chiqarishni tashkil etishda dinamik va statistik usullari samaradorlik ko'rsatkichlarining 2030 yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, loyihaning maxsus investitsiya sifatlarini chuqur tahlil qilish va baholash sifatida "investitsiya loyihasi ekspertizasi"dan tashkil topgan yangi ekspertiza yo'nalishi asoslangan;

investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari mutaxassislarini jalb qilish asoslangan;

loyiha oldi investitsiya hujjatlarini ishlab chiqish, har tomonlama ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi qiymatining kamida 70 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarga nisbatan qo'llanilmasligi asoslangan;

investitsiya loyihasining moliyaviy samaradorligini baholashda asosiy hal qiluvchi omil moliyaviy risklarni baholash hisoblanishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot mavzusi bo'yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish natijalari, rasmiy statistik, shuningdek, Moliya vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilgani hamda tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy qoida va xulosalardan O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodikasini takomillashtirishda "Korporativ boshqaruv", "Investitsion loyihalarni baholash", "Investitsion loyihalarni boshqarish" kabi darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra loyihaning kelgusida nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy, ekologik va innovatsion jihatdan foydali bo'lgan alohida investitsiyaviy sifatlarini bilimning tegishli sohalaridagi yuqori malakali mutaxassislarni jalb etgan holda amalga oshiriluvchi chuqurlashtirilgan tahlil qilish va baholash sifatidagi "investitsiya loyihasi ekspertizasi"ga asoslangan ekspertizaning yangi yo'nalishini, ya'ni ekspertiza tushunchalari, tamoyillari, funksiyalari va usullari majmuini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy ekspertizani joriy etish taklifidan 60411500-Biznes

tahlili, 60411200-Menejment, 60310500-Raqamli iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun nashr etilgan "Islom iqtisodiyoti va moliyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, mazkur soha vakillari hamda talabalar uchun investitsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish jarayoniga bog'liq bo'lgan bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoni yaratilgan;

investitsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda zarur hollarda davlat va nodavlat tashkilotlari, shu jumladan, loyiha institutlari, muhandislik-konsalting kompaniyalari, ilmiy va ta'lim muassasalari, shuningdek, xalqaro va mahalliy tashkilotlar mutaxassislarini shartnoma asosida jalb etish maqsadida ekspertiza predmeti tavsifi, murakkablik darajasi, loyiha qamroviga ko'ra muvofiq keluvchi ekspertlar guruhining muntazam yangilanib turuvchi oldindan shakllantirilgan ro'yxati (bazasi)ni yo'lga qo'yishni joriy etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori 1-ilovasi: "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 02-14/3-327-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida qamroviga ko'ra muvofiq keluvchi ekspertlar guruhini qisqa vaqt ichida, aynan zarur bo'lgan mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etish imkoni yaratilgan;

loyihaoldi investitsiya hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi qolgan qismini moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, qiymatining kamida 70 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarga nisbatan tatbiq etmaslik taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qaror 1-ilovasi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 02-14/3-327-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, loyihaoldi investitsiya hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini optimallashtirish, loyihani ekspertizadan o'tkazishda qo'shimcha moliyalashtirish tadbirlaridan ozod etilishi hamda iqtisodiyotga xorijiy investorlarni keng jalb qilish imkoni yaratilgan;

investitsion loyihaning moliyaviy samaradorligini baholashda asosiy belgilovchilari omil sifatida moliyaviy risklarni, kutilayotgan o'zgarishlarning tabiati va doirasini hamda xavfni kamaytirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlarni reyting usulida baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori 1-ilovasi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 02-14/3-327-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi

natijasida, investitsion loyihaning moliyaviy samaradorligini baholashda xavfni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni reyting usulida baholash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkoni yaratilgan;

“O‘zmetkombinat” AJda ferrosilikon va ferrosilomarganetslarni ishlab chiqarishni tashkil etishda dinamik va statik usullari samaradorlik ko‘rsatkichlarining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 02-14/3-327-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, “O‘zmetkombinat” AJda loyiha natijalarini rejalashtirish uchun dinamik va statik usullaridan foydalangan holda istiqboldagi asosiy parametrlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta milliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan otkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo’yicha 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 203 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya loyihalari ekspertizasining nazariy va uslubiy asoslari”** nomli birinchi bobida investitsiya loyihasi ekspertizasining nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan, investitsiya loyihasini baholashning ahamiyati, maqsad hamda vazifalari haqidagi ilmiy qarashlar va muallifning fikrlari tahlil qilingan. Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish bo’yicha normativ-huquqiy baza atroflicha ko‘rib chiqilgan, O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasini mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun takomillashtirishning shakl va usullari bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan.

Ekspert faoliyatini faol joriy etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirishda noaniqliklar blokini anglash bilan bog‘liq juda murakkab vazifalar paydo bo‘lgan paytdan beri davom etmoqda, ammo bugungi kunda sifat darajasiga qo‘yiladigan talablar va tajriba doirasi sezilarli darajada oshdi. Ekspert jarayonlaridan ommaviy foydalanish ijobiy tomonlari bilan birga qator salbiy oqibatlariga ham ega. Xususan, ekspertiza mohiyatini

o‘zboshimchalik bilan talqin qilish va buzish, uning funksiyalarini nazorat, tadqiqot va boshqarish vazifalari bilan chalkashtirish, ekspertiza vakolatidan tijorat maqsadlarida spekuliyativ foydalanish shular jumlasidan.

Ekspertiza deganda, investitsiya loyihasini taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, materialning to‘g‘ri taqdim etilishi, loyiha bo‘limlarini amalga oshirishning mantiqiy ketma-ketligiga rioya etilishi, moliyaviy hisob-kitoblarning malakali tayyorlanishini tekshirish, qabul qilingan xulosalar va taxminlarning asosliliigi tushunilishi kerak. Investitsion loyihalarni ekspertiza qilishning har bir bosqichida tanlangan matematik modelga, mikro va makroiqtisodiy vaziyatga qarab turlicha yondashuvlardan foydalanish mumkin. Sifatli o‘tkazilgan ekspertiza hisob-kitoblar asosida muayyan zavod, ishlab chiqarish va iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirish uchun bir nechta variantlardan eng xavfsiz investitsiya loyihasini tanlash imkonini beradi. Ekspertiza o‘tkazishning asosiy prinsiplari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ekspert (ekspertlar)ning kasbiy mahorati va kompetentligi;
- investitsiya loyihasining barcha jihatlarini kompleks tahlil qilish;
- miqdoriy jihatdan aniqlanishi mumkin bo‘lgan muayyan mezonlarning mavjudligi;
- baholash mezonlarida biznes-rejaning barcha asosiy bo‘limlarini hisobga olish;
- ekspertiza o‘tkazish jarayonining yuqori darajada obyektivligi;
- ekspert tomonidan ma’lumotlarni bir nechta manbalardan tekshirish va olish;
- ekspertiza o‘tkazishda rezidentga yordam berish;
- ekspertiza jarayoni ishtirokchilarining investordan va loyiha tashabbuskorlaridan mustaqilligi;
- ekspert bahosining obyektivligi va xolisligi;
- ekspertizaning amalga oshirilishining barcha bosqichlarida maxfiyligi.

EKSPERTOLOGIYA								
Maqsad va vazifalar	Prinsiplar	Obyektlar	Vositalar	Baza	Tasniflash	Subyektlar	Usullar	Tashkillashtirish
EKSPERT XULOSASI								

**1-rasm. Investitsion loyihalarni tahlil qilish bosqichlari<sup>6</sup>**

Bizning fikrimizcha, ekspertiza haqidagi bilimlar tizimi sifatida ekspertologiyaga munosabat masalasi ancha dolzarb. Ekspertiza haqidagi fan sifatida ekspertologiya oldida ekspert faoliyatining turli turlari, nazariyalar va metodologik asoslari uchun umumiy bo‘lgan ilmiy bazisni ishlab chiqish vazifasi

<sup>6</sup><https://newslugi.tpprf.ru/ru/services/31623/>

turibdi. Ekspertizaning nazariyasi va metodologiyasiga qo‘yilayotgan talablar, uning boshqaruv qarorlari tayyorlash vositasiga aylanishi doirasida kompleks ekspertizaning metodik ta‘minotini shakllantirishda nazariy jihatdan yoritilishi zarur bo‘lgan yangi savollar paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son va 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-son “O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va royobga chiqarish, davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida hujjatlarni kompleks ekspertiza qilishning samarali tizimini yaratish to‘g‘risida”gi qarorlari bilan investitsiya va infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o‘tkazish va loyihadan oldingi va loyiha hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi. Qayd etilishicha, “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi qonun hujjatlarida berilgan vakolatlar bilan bir qatorda:


a) qonun hujjatlariga muvofiq loyihadan oldingi hujjatlarni, shuningdek, investitsiya va infratuzilma loyihalari bo‘yicha loyihadan oldingi hujjatlarni ishlab chiqish uchun texnik shartlarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish;

b) besh mingdan ortiq bazaviy hisoblangan qiymatdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlari bo‘yicha texnik shartlarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish;

v) eng yaxshi takliflarni tanlash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish asosida strategik xaridorlar tomonidan tuziladigan qirq mingdan ortiq asosiy hisob-kitob qiymatidagi import shartnomalarini va ularga qo‘shimcha bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini olib boradi.

Kompleks baholash loyiha tuzilishining tijorat va sanoat maqsadiga muvofiqligi omillarini, loyiha bo‘yicha kutilayotgan samaradorlik ko‘rsatkichlarining boshqaruv qarorini qabul qilishda qoniqarli mezonlarga muvofiqligini hisobga olishni nazarda tutadi. Investitsion loyihalarni ekspertizadan o‘tkazishda juda ko‘p sonli hisob-kitoblar, diagrammalar va grafiklarni tuzishga to‘g‘ri keladi.

O‘z navbatida, kompleks ekspertiza yuqori darajadagi tizim - qaror qabul qilish tizimining quyi tizimi. Investitsion loyihalarni har tomonlama tahlil qilish jarayoni tahliliy ishlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi, bu uni har tomonlama ko‘rib chiqish va birinchi navbatda, foyda va zarur resurslarni aniqlash, IPni amalga oshirish imkoniyati bilan bog‘liq vaziyatni aniqlash imkonini beradi.



## 2-rasm. Kompleks ekspertiza prinsiplari<sup>7</sup>

Keng qamrovli ekspertiza yakunida barcha ekspertlar tomonidan imzolanadigan ekspert xulosasi tuzilishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishning zamonaviy metodologiyasi tahlili”** nomli ikkinchi bobida muallif tomonidan investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasi bo‘yicha jahon tajribasi, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish, investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish samaradorligi tahlili, korxonalarining innovatsion faoliyatiga eng moslashtirilgan investitsiya loyihalari va ekspertlarni tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirishga yondashuv tahlil qilingan. So‘ngra muallif rivojlangan mamlakatlarning investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasi bo‘yicha jahon tajribasini ko‘rib chiqadi.

Loyiha ekspertizasi ( <i>appraisal of project</i> )	Loyihalarni baholash ( <i>evaluation of project</i> )
<ul style="list-style-type: none"> <li>mazkur jarayon loyihani amalga oshirishdan oldin amalga oshiriladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>jarayon loyihani amalga oshirishdan keyin amalga oshirilad</li> </ul>

## 3-rasm. Koreyadagi investitsiya loyihalari uchun konsepsiyalar<sup>8</sup>

*Janubiy Koreya tajribasi.* O‘zbekiston Respublikasi Koreya instituti (National Human Resources Development Institute-NHI) bilan xalqaro hamkorlik qiladi. Koreyalik ekspertlar ishtirokidagi ana shunday tadbirlardan birida investitsiya loyihalarini tahlil qilish uchun baholash mavzusi va ularning konsepsiyalari ko‘rib chiqildi. Ushbu jarayon 3-rasmda ko‘rsatilgan. Janubiy Koreyada investitsiya loyihalarini baholash tizimini rivojlantirishning asosiy bosqichlari tahlilida, shuni ta’kidlash zarurki, TPCM (Total Project Cost Management) loyihaning umumiy qiymatini boshqarish; PFS (Preliminary Feasibility Study) - loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini dastlabki o‘rganish; RSF (Re-assessment Study of Feasibility) - loyihaning texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini qayta baholash; RDF (Re-assessment of

<sup>7</sup> [https://studme.org/40923/psihologiya/kompleksnaya\\_sudebnaya\\_ekspertiza](https://studme.org/40923/psihologiya/kompleksnaya_sudebnaya_ekspertiza).

<sup>8</sup> Uzbekistan APA Capacity Building workshop, National Human Resources Development Institute.

Demand Forecast) - loyihaning prognozli talabini qayta baholash. Koreyada baholash tizimi investitsiya loyahasining butun hayotiylik sikli uchun qo‘llanilish jarayoni quydagi 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### Investitsion loyihalar ekspertizasi tizimi bo‘yicha hayotiylik sikli<sup>9</sup>

Amalga oshirishdan oldin	Oraliq bosqich	Ishga tushirildan keyin
I bosqich	II bosqich	III bosqich
Rejalashtirish	Dastlabki loyiha	Ekspluatatsiya/texnik xizmat
PFS (Preliminary Feasibility Study)	Konseptual loyiha	
	Ishlab chiqarish	Natijalarni baholash (moliyalashtirish dasturini puxtalik bilan baholash)
	Investitsion loyihaning umumiy qiymatini baholash (PFS, RSF, RDF)	

*AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi.* Qo‘shma Shtatlar va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekspert faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u ko‘plab turli xil shakllarga ega va yuqori malakali mutaxassislar nafaqat o‘rganilayotgan masalaning aniq sohasi, balki unga yaqin sohalardan ham jalb qilgan holda muammoning har tomonlama sermazzmun ishlab chiqilishi bilan farq qiladi.

Germaniyada iqtisodiy siyosatga umumiy iqtisodiy rivojlanishni baholash bo‘yicha ekspert kengashi, shuningdek, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari huzuridagi ekspert, tahliliy va maslahat berish funksiyalarini bajaruvchi ilmiy kengashlar muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ekspert kengashi ekspertiza o‘tkazish uchun tashqi ekspertlarni ham jalb qilishi mumkin.


Fransiya ekspert xizmatlari mustaqil va juda muhim maqomga ega bo‘lgan hukumat qarorlarini qabul qilish tizimida alohida o‘rin tutadi. Fransiyada ushbu maqsadlar uchun mustaqil ekspert xizmatlarini tashkil etish amalga oshirilayotgan milliy ilmiy va texnologik dasturlarni hamda ushbu dasturlar bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan ilmiy tashkilotlar faoliyati sifatini mustaqil baholashni ta’minlaydigan maxsus qonunlar, shuningdek, maxsus qo‘mita - CNER (Comitee National d’evaluation de la recherche)ning tashkil etilishi bilan bog‘liq. Qo‘mita o‘zining hukumatning ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish bo‘yicha milliy siyosatini mustaqil baholashni ishlab chiqishdan iborat asosiy maqsadiga ega.

Yaqin vaqtgacha AQSH Kongressi topshirig‘iga binoan ekspertizalar OTA (Office of Technology Assessment - Texnologiyalarni baholash idorasi) tomonidan tashkil qilingan. OTA AQSH Kongressiga rasman “bo‘ysunishi”ga qaramay, aslida, avtonom tarzda ishlagan va Kongress apparatining kundalik ishlarida qatnashishdan ozod etilgan. An’anaga ko‘ra, Prezident ijroiya apparati farmoyishlari bo‘yicha ekspert maslahat xizmatlarini Milliy Fanlar akademiyasi, Milliy fan jamg‘armasi, Milliy Sog‘liqni saqlash instituti va turli universitetlar ham bajaradi. Tanqidiy baholashning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha obyektiv ehtiyojlarga javob beradigan ularning faoliyati, asosan, maslahat xarakteriga ega.

Qayd etish lozimki, Yevropa Ittifoqining aksariyat mamlakatlarida fan va

<sup>9</sup>Uzbekistan APA Capacity Building workshop, National Human Resources Development Institute.

korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ular ikkita keng turga bo'linadi. Birinchi tur kichikroq bir martalik loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, bunda korxonalar va ilmiy muassasalar ilmiy, texnologik yoki innovatsion maqsadga erishish uchun birgalikda ishlaydi. Bunday aralashuvlar ko'pincha muayyan texnologik muammolarini hal qilishga yoki yangi mahsulot prototipini ishlab chiqishga qaratilgan.



#### 4-rasm. Iqtisodiyotda innovatsiyalarni oshirish omillari<sup>10</sup>

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, innovatsiyalar firmalarning raqobatbardoshligini saqlab qolish va dinamik global bozorlarda uzoq muddat omon qolishni ta'minlash uchun zarur omil hisoblanadi (4-rasm). O'zbekistonda esa, iqtisodiyotda innovatsiyalarni oshirishning uchta asosiy omili mavjud bo'lib, ular quyida ko'rib chiqiladi.

#### 2-jadval

#### Fan-ishlab chiqarish hamkorligining illyustrativ mantiqi<sup>11</sup>

Kirish	Chiqish	Natijalar	Uzoq muddatli natijalar
Grantlar va moliyaviy vositalar.	Loyihalarni moliyalashtirish orqali Ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalar hajmini oshirish; yangi va kengaytirilgan markazlar; olimlar va loyihalar bo'yicha muhandislarning birgalikdagi ishi.	Patentlarning ko'payishi / muayyan texnologik soha bo'yicha qo'shma nashrlar; prototiplarni ishlab chiqish; fanda ham, ishlab chiqarishda ham hamkorlikdagi loyihalarni boshqarish qobiliyatini oshirish; tadqiqot daromadi.	Hamkorlikdagi loyihalardan innovatsion mahsulotlar/xizmatlarni sotish/eksportning o'sishi; investitsiyalar tadqiqoti va ishlanmasining barqaror o'sishi; ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda xususiy ulushning ortishi; ishlab chiqarishda Hitech ulushini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalar hajmining ko'payishi korxonalarining o'sishiga, investitsiyalar hajmining barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilayotgani o'rganilib, ushbu jarayon tahlili amaldagi investitsiya loyihasi misolida keltiriladi. 2-jadvalga ko'ra, faoliyatga innovatsiyalarni joriy etish orqali natijalar olishning muhim jihati sifatida fan-ishlab chiqarish kooperatsiyasi mantig'i haqida fikrlar ilgari surilgan.

Quyida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ("NKMK" AJ), Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, "O'zmetkombinat" AJ kabi

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>11</sup> [http://ec.europa.eu/regional\\_policy/information/evaluations/guidance\\_en.cfm#1](http://ec.europa.eu/regional_policy/information/evaluations/guidance_en.cfm#1) - Evaluation of Innovation Activities Guidance on methods and practices, European Union, 2012.



aksiyadorlik jamiyatlarining joriy investitsiya loyihalari keltirilgan. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (NKMK) jahondagi eng yirik oltin qazib oluvchi to‘rtta kompaniyadan biridir. Zavod yer osti boyliklaridagi zaxiralarni geologik o‘rganish, rudani qazib olish va qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish siklini o‘zlashtirgan sanoat klasteriga ega. NKMK AJ oltin quymalaridagi “999,9” tahlil belgisi jahon qimmatbaho metallar birjalarida O‘zbekiston brendiga aylandi.

Ayni paytda, “Muruntov karyerini rivojlantirish” investitsiya loyihasi jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda. Kitco tahliliy markazi ma’lumotlariga ko‘ra, Muruntov koni 2020-yilda oltin qazib olish bo‘yicha jahon yetakchisi sifatida tan olingan. Bundan tashqari, nufuzli Forbes nashri O‘zbekistonda dunyodagi maydoni bo‘yicha eng yirik ochiq usulda qazib olinadigan “Muruntau” oltin koni joylashganini, u oltin zaxiralari bo‘yicha ham dunyodagi eng yirik kondir. NKMK AJning “Muruntov karyerini o‘zlashtirish” investitsiya loyihasi bo‘yicha ma’lumotlar 3-jadval keltirilgan.

### 3-jadval

#### NKMK AJ oltin zaxiralari bo‘yicha “Muruntau karyerini rivojlantirish” investitsiya loyihasi<sup>12</sup>

Loyihaning qisqacha tavsifi	O‘lch.birl.	Ko‘rsatkichlar
Oltin zaxiralari bo‘yicha	tonna	4 ming tonnadan ko‘p
Karyer uzunligi	km	4,3
Kengligi	km	3,2
Chuqurligi (2022)	metr	650 ga yaqin
Chuqurligi (2026)	metr	1000 gacha
Karyerdan qazib olish (2022)	tonna	yiliga 42 million tonna ruda
Karyerdan qazib olish (2026ga reja)	tonna	yiliga 50 million tonnagacha ruda
<i>Shimoliy-Sharqiy “V-navbat” majmuasining siklik-oqim texnologiyasi</i>		
Narxi	dollarov	733,9 mln.
Yangi ish o‘rinlarini yaratish	ming	1,8
Qo‘shimcha quvvat	tonna	4 million (yiliga)
Jalb qilingan xorijiy kreditlar (5 yil)	dollar	245,1 mln.

Ushbu loyihani amalga oshirish bosqichida Shimoliy-Sharqiy siklik oqim texnologiyasi majmuasi foydalanishga topshirildi. Ushbu majmua yordamida tarkibida oltin saqlovchi ruda maydalanadi, tushirish punktidan konveyerlar orqali tashiladi va buning natijasida transport xarajatlari kamayadi. Kombinatda Innovatsion markaz tashkil etilib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini 2026-yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturi qabul qilingan. Dasturning 105 ta innovatsion loyihasining ishlab chiqarishga joriy etilishi oltin rudalari va uranni qazib olish hamda qayta ishlash samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va eksport qilinadigan mahsulotlar sonini kengaytirish uchun katta shart-sharoit yaratadi.

<sup>12</sup>“Olmaliq KMK” AJ hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**“Olmaliq KMK” AJ investitsion loyihalari”<sup>13</sup>**

Nomi	O'lch.birl.	Ko'rsatkichlar
Umumiy qiymati 4 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda	doll.	5340,4 mln.
o'z mablag'lari hisobidan	doll.	2760,9 mln.
FRDU mablag'lari	doll.	217,1 mln.
tijorat banklari kreditlari	doll.	24,7 mln.
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar	doll.	2271,4 mln..
2023-yilda kapital qo'yimalarni rivojlantirish rejalashtirilgan	doll.	1106,7 mln.
shu jumladan: o'z mablag'lari	doll.	617,9 mln.
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar	doll.	488,8 mln.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati O'zbekistondagi yagona mis ishlab chiqaruvchi korxonaga hisoblanadi. Korxonada tozalangan mis, metall rux, molibden, qo'rg'oshin konsentrati va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. O'zbekiston Respublikasida kumush qazib olishning qariyb 90 foizi va oltin qazib olishning 20 foizi “Olmaliq KMK” AJ ulushiga to'g'ri keladi.

5-jadvalda “Olmaliq KMK” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning batafsil ko'rsatkichlari keltirilgan.

**“Olmaliq KMK” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari<sup>14</sup>**

Tashabbuskorlar va loyihalar nomi	Loyihaning umumiy qiymati	Loyiha quvvati	Amalga oshirish muddati (yy)	2023-yil uchun rivojlanish prognozi	Hisobot davri uchun % bajarish
AGMK uchun jami	5340,4			1106,7	118,5
“Yoshlik-I” konini o'zlashtirish (1-bosqich)	4799,3	60 mln. tonna mis-molibden rudasi	2017-2024	1076,6	119,1
"Burg'ulash asboblari ishlab chiqarishni tashkil etish"	4,7	yiliga 2 ming dona	2023	4,7	100
“Olmaliq KMK” AJ faoliyatini rekonstruksiya qilish va barqarorlashtirish dasturi	422,9	faoliyatni barqarorlashtirish	2018-2025	24,1	102,1
Xondiza konining +1280+880m gorizontalari oralig'ida zaxiralarni ochish va tayyorlash	113,5	650 ming tonna yiliga	2023-2028	1,3	100

So'ngra korxonalar innovatsion faoliyatiga ko'proq moslashtirilgan investitsion loyihalad samaradorligi holati tahlili ko'rib chiqiladi.

Navbatdagi jadvalda “O'zmetkombinat” AJning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ko'rib chiqilgan. Metallprokat ishlab chiqarish bo'yicha statistikaga ko'ra,

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tadqiqot jarayonida “Olmaliq KMK” AJ hisobotlari asosida tuzilgan.

<sup>14</sup> “Olmaliq KMK” AJ hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2018-2022-yy.da sezilarli o'zgarish kuzatilmagan, 2022-yilga kelib, 345 ming tonna -yaxshi o'sish kuzatilgan.

### 6-jadval

#### “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari smetasi, ming AQSH dollarida<sup>15</sup>

Loyihaning qisqacha tavsifi	“Ferrosilikon va ferrosilomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasining smetasi
Ishlab chiqarish hajmi (yiliga)	15,0 ming tonna va 10,0 ming tonnani tashkil etadi
shu jumladan, zavodning o'z mablag'lari	46400
Koreya Eksimbank krediti	11475
Ipoteka-bank krediti	2065
Jalb qilinadigan xodimlarning taxminiy soni	188
<b>Loyiha bo'yicha yakuniy smeta</b>	<b>18578</b>

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, investitsiyalar korxonalar faoliyatini modernizatsiyalashning manbai hisoblanadi. “O‘zmetkombinat” AJ Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Koreya va Xitoy kabi davlatlar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik olib boradi. Mazkur hamkorlik doirasida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan. Mazkur loyihalarning o'ziga xos qiymati mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish ma'lum davrga rejalashtirilgan. Mazkur loyiha to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, barcha ko'rsatkichlar va usullar bo'yicha investitsiya loyihasining samaradorligi baholangan (7-jadvalga qarang).

### 7-jadval

#### “Ferrosilitsiy va ferrosilomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasi bo'yicha umumiy ma'lumot, ming AQSH dollarida<sup>16</sup>

Nomi	“Ferrosilitsiy va ferrosilomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasi			
Birlamchi investitsiya	59940			
Narxi	1,065		1,675	
Xarajatlar	0,170		0,170	
Importdan sotib olish narxi	1,4		1,66	
Foyda	0,505		0,155	
<b>Davr (yillar)</b>	<b>2018</b>	<b>2019-2030</b>	<b>2018</b>	<b>2019-2030</b>
Ishlab chiqarish hajmi	10	15	0,903	10
Pul oqimi	5 050	7 575	140	1 550
Daromad	14 000	21 000	1 499	16 600
Narxi	8 950	1 359, 3	13425	15 050

Hisob-kitoblarga ko'ra, loyihaga jalb qilingan investitsiyalar qaytish muddati - 13 yil. Muallif fikricha, «O‘zmetkombinat» AJ uchun investitsiya loyihasi uzoq muddatli istiqbolda investor va korxonalar mulkdorlari uchun samarali hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, 8-jadvalda loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan.

<sup>15</sup>Muallif tomonidan “O‘zmetkombinat” AK hisobotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>16</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

## 8-jadval

Ferrosilikon va ferrosilomanganeslarni ishlab chiqarishni tashkil etishda dinamik va statistik usullari samaradorlik ko'rsatkichlarining 2030 yilga qadar prognoz parametrlari (ming AQSh dollarda)<sup>17</sup>

Nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026	2027	2028	2029	2030
<b>Statistik usulning samaradorlik ko'rsatkichlari</b>													
Sof joriy qiymat (NPV)	4 718	7 541	6 855	6 232	5 665	5 150	4 682	4 256	3 869	3 518	3 198	2 907	2 643
Taxminiy daromad darajasi (ROI)	0,09	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15	0,15
Qoplash davri (PP)	-54750	-45625	-36500	-27375	-18250	-9125	0	9125	18250	27375	36500	45625	54750
<b>Dinamik usulning ishlash ko'rsatkichlari</b>													
Rentabellik indeksi (PI)											1,87		
Diskontlangan to'lov muddati (DPP)											7,47		
Ichki daromad darajasi (IRR)											10,4%		
Modifitsirilgan ichki daromad darajasi (MIRR)											10,18%		

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida loyihaning qoplanish muddatini tezlashtirish uchun foydani hisoblash tezligini oshirishga intilish zarurligi haqidagi g'oya ilgari surildi.

## 9-jadval

"Ferrosilitsiy va ferrosilokomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi uchun yordamchi miqdorlar<sup>18</sup>

	$x_i$	$y_i$	$\frac{1}{x_i}$	$\frac{1}{x_i^2}$	$\frac{y_i}{x_i}$
1	4718	-54750	0.00021195	4e-8	-11.60449343
2	7541	-45625	0.00013261	2e-8	-6.05025859
3	6855	-36500	0.00014588	2e-8	-5.3245806
4	6232	-27375	0.00016046	3e-8	-4.39265083
5	5665	-18250	0.00017652	3e-8	-3.22153575
6	5150	-9125	0.00019417	4e-8	-1.77184466
7	4682	0	0.00021358	5e-8	0
8	4256	9125	0.00023496	6e-8	2.14403195
9	3869	18250	0.00025846	7e-8	4.71698113
10	3518	27375	0.00028425	8e-8	7.78140989
11	3198	36500	0.0003127	1e-7	11.41338336
12	2907	45625	0.000344	1.2e-7	15.69487444
13	2643	54750	0.00037836	1.4e-7	20.71509648
$\Sigma$	61234	0	0.00304792	7.9e-7	30.10041341

<sup>17</sup> "O'zmetkombinat" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

<sup>18</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

9-jadvalga asosan, mavjud ma'lumotlar uchun  $\hat{y} = a + \frac{b}{x}$  giperbolik regressiya tenglamasining tahlili keltirilgan. 9-jadvalga muvofiq, bu yerda NPV =  $x_i$ , PP =  $y_i$  ga tenglashtirilgan.

1. Korrelyatsiya indeksi<sup>19</sup>:

$$R = \sqrt{1 - \frac{\sum(y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum(y_i - \bar{y})^2}} = \sqrt{1 - \frac{2482453033.9192}{15154343750}} \approx 0.9144;$$

2. Aniqlanish ko'rsatkichi:  $R^2 = 0.9144^2 \approx 0.8362$ ;

3. F- Fisher mezonlari:

– kritik (jadvali):  $F_{tabl} = F\alpha k_1 k_2 = F(0.05, 1.11) \approx 4.8443$ ;

– faktik  $F_{tabl} = \frac{R^2}{1-R^2} * \frac{k_2}{k_1} = \frac{0.8362}{1-0.8362} * \frac{11}{1} \approx 56.1504$

$k_1 = m = 1, k_2 = n - m - 1 = 13 - 1 - 1 = 11$  va  $\alpha = 0,05$  ga teng

Bu yerda: m - regressiya tenglamasining o'zgaruvchilari uchun parametrlar soni.

4. Darbin-Watson mezonlari:

– kritik (jadvali):  $d_L =, d_U =$

– faktik  $d = \frac{\sum(\varepsilon_i - \varepsilon_{i-1})^2}{\sum \varepsilon_i^2} = \frac{1896145582.1779}{2482453033.9192} \approx 0.7638$

Muallifning fikricha, investitsiyalar va innovatsiyalar korxonalar rentabelligini oshirish va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni kamaytirishga, tayyor mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korxonani zamonaviy bozor mexanizmlariga moslashtirishda istiqbolli investitsiya loyihalari dolzarbligicha qoladi. Ekspert ishini tashkil etishning asosiy jihati bu vakillik ekspert komissiyasini tuzish bo'lib, uning tarkibiga haqiqatan ham malakali mutaxassislar kirishi lozim.

## 10-jadval

### Ekspertlarga qo'yiladigan asosiy talablar<sup>20</sup>

Ekspert xususiyatlari	Yaxshi ishlashga qodir	O'z kasbi bo'yicha mutaxassis sifatida	Kasbi bo'yicha kompetensiya	
		Ekspert guruhlar a'zosi sifatida	Mustaqillik	Tegishli kasblar bo'yicha kompetensiya
				Obyektiv
			Qarorlarni muhokama qila oladi	Nonkonformizm
				Chidamlilik
		Yaxshi ishlashga muvaffaq bo'ladi	Xotirjamlik	
	Ishlash qobiliyati			
	Yaxshi ishlashni xohlaydi	Axloqiy qiziqish	Haqiqatgo'y	
			Professional manfaatdorlik	
		Moddiy manfaatdorlik		


Mutaxassisni tanlashda "kompetensiya" tushunchasi kasbiy onglilik, bilimdon

<sup>19</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>20</sup> Tadqiqot davomida muallif tomonidan tayyorlangan.


shaxsning ekspertiza predmeti bilan bog‘liq qo‘yilgan savollarni hal qilish qobiliyati sifatida qo‘llaniladi.

Dissertatsiyasining **“Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasida risklarni tahlil qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida muallif investitsiya loyihalairda uchraydigan riskini yoki “ehtimoliy modellashtirish”ni tahlil qilish yordamida, investison va innovatsion loyihalar samaradorligini ekspertiza qilish orqali risklarni pasaytirish jarayonini tahlil qilgan. Risklarni tahlil qilish jarayonini, 5-rasmda ko‘rsatilganidek, quyidagi bosqichlarga bo‘linishi mumkin.



**5-rasm. Risklarni tahlil qilish jarayoni**<sup>21</sup>

Modellashtirish belgilangan ehtimollik taqsimotidan qiymatlarni tasodifiy tanlash usuli o‘zgaruvchilari o‘rtasidagi ma’lum yoki taxmin qilingan korrelyatsiya munosabatlarining mavjudligi buzmasligi uchun nazorat qilinadi. Korxonainnovatsion faoliyati samaradorligi tahlilining obyektivligini ta’minlash uchun innovatsion loyiha risklarini miqdoriy baholash kerak. Ushbu holatlar innovatsion risklarning sifatli baholashning miqdoriy bahosidan ustunligini belgilaydi.




**6-rasm. Risklarni baholash va boshqarish tartibi**<sup>22</sup>

<sup>21</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.


<sup>22</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Iqtisodiy va statistik usullar investitsiya risklari darajasini baholashda asos bo'lib xizmat qiladi.



**7-rasm. Loyihaning hayotiylik sikli bosqichlarining ketma-ketligi<sup>23</sup>**

Agar korxonada iqtisodiy va statistik usullardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bo'lmasa, investitsiya riski darajasini baholashning ekspert usullari qo'llaniladi. Risklarni boshqarishning murakkabligi tashqi va ichki muhitdagi turli omillarning investitsiya jarayonlariga ajralmas ta'siri bilan izohlanadi.



**8-rasm. Investitsion loyihani amalga oshirishda risk noaniqligini kamaytirishning grafik tasviri<sup>24</sup>**

8-rasmda investitsiya riski bilan mahsulotni realizatsiya qilish davrigacha bo'lgan bog'liqlik tasvirlangan. R<sub>1</sub>, R<sub>2</sub>, R<sub>3</sub> - butun realizatsiya davri uchun risk ko'rsatkichlari. Shuni ta'kidlash kerakki, loyihani amalga oshirishning dastlabki

<sup>23</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>24</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

davri, odatda, yuqori riskka ega bo‘lib, loyihani amalga oshirishning yakuniy natijasigacha risk ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatilishi mumkin, bu esa, riskning yakuniy davrga qadar kamayishini ko‘rsatadi. Texnologiyadagi yutuqlar barcha shakllardagi innovatsiyalarning markazida bo‘lib, mavjud mahsulotlarni yaxshilash bo‘yicha yangi texnologiyalar asosida yuqori tashabbuslar amalga oshirilmoqda - 86% va deyarli 80%i yangilarini yaratishga bag‘ishlangan. Sun‘iy intellekt va texnologiyalarning yo‘lga qo‘yilganligi yoki rejalashtirilganligi kelgusi davrlarda korxonalarining rivojlanish imkoniyatlarini yanada kuchaytirishga olib kelishi kutilmoqda.

### 11-jadval

#### Risk omilining ta‘siriga qarab natijalardagi farqlar ahamiyatini baholash mezonlari <sup>25</sup>

Mezon nomi	Mezon qiymati	Mezon darajasi
$X_i$ – kvadrat mezon	1.880	0.171
Yeyts tuzatishi bilan $X_i$ –kvadrat mezon	1.534	0.216
Ehtimollikka moslashtirish $X_i$ – kvadrat mezon	1.884	0.170
Fisherning aniq mezon (ikki tarfli)	NaN	p>0,05
<b>Kutilayotgan hodisaning minimal qiymati 47,18 ni tashkil qiladi</b>		

Shu bilan birga, loyihaning sof joriy qiymatining (NPV) olingan qiymatlari va t davridagi to‘lovlar sof oqimining qiymati (NCF<sub>t</sub>) investitsiya loyihasining riskini to‘liq baholash uchun ishlatilgan. NCF<sub>t</sub> ning o‘rtacha kutilgan qiymatdan og‘ishi qanchalik katta bo‘lsa, loyihaning xavfi shunchalik yuqori bo‘lishi xulosa qilingan.

### 12-jadval

#### Risk omili va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchini baholash mezonlari <sup>26</sup>

Mezon nomi	Mezon qiymati	Aloqaning mustahkamligi*
φ mezon Kramer V mezon Chuprov K mezon**	0.089	Ahamiyatsiz
Pirsonning favqulodda koeffitsiyenti (S)	0.089	Ahamiyatsiz
Pirson koeffitsiyentining me‘yorlashtirilgan qiymati (S’)	0.126	Zaif

Eng muhim innovatsion faoliyat turlari tahlilidan kelib chiqib, unda risk omilining ta‘siriga qarab natijalardagi farqlarning ahamiyatini baholash mezonlari, risk omili va dastlabki ma‘lumotlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligini baholash mezonlari hisoblab chiqilgan. 12-jadvalda korxonaning innovatsion salohiyati va risklarni zararsizlantirish va minimallashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan, innovatsion risklarni boshqarish modeli keltirilgan. Kutilayotgan natijalar va xarajatlarga qarab, samaradorlikning quyidagi turlari ajratiladi.

<sup>25</sup> Ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

<sup>26</sup> Ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.



Innovatsion risklarni boshqarish modeli <sup>27</sup>

Korxonaning innovatsion salohiyati (innovatsion bosqichlar)		
Rejalashtirish riski	Shakllanish riski	Kirishdagi yoki pasayishdagi risklar
<b>Risklarni zararsizlantirish va minimallashtirish usullari:</b>		
- texnologiyalar o‘rtasidagi moslikni o‘rnatishdagi risklarni boshqarish.	- integratsiyalashgan identifikatsiya algoritmini qo‘llash.	- integratsiyalashgan identifikatsiya algoritmini qo‘llash va korxonalarining innovatsion faoliyati risklarini boshqarish.

Korxonalar risklarini innovatsion boshqarishning o‘ziga xos usullari modeli sizga ma’lum usullar bilan taklif qilingan korxonalar imkoniyatlariga muvofiq risklarni tez va samarali ravishda zararsizlantirishga imkon beradi. Yuqorida keltirilgan “O‘zmetkombinat” AJdagi “Ferrosilitsiy va ferrosilikomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasidan foydalangan holda innovatsion jarayonlarni amalga oshirishdagi xavf-xatar investitsiya loyihasi samaradorligi tahlil qilindi. Quydagi formuladan foydalanib, korxonaning innovatsion, mehnat, boshqaruv, infratuzilma, iqtisodiy, moliyaviy va ishlab chiqarish quvvatlarining unumdorlik koeffitsiyenti topildi<sup>28</sup>:

$$K_m = \sum \frac{r_i}{t_i} = \frac{59\,940\,000}{12 * 7} = 713\,571 \text{ dollar yoki } 5\,948\,506\,248 \text{ so‘m.}$$

Shundan kelib chiqib,  $r_i$  – 59 940 000 dollarni (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha) tashkil etadi. Biz tomonimizdan risk davri sifatida butun yil olindi. Natijada, “Ferrosilitsiy va ferrosilikomarganets ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasi bo‘yicha korxonaning innovatsion, mehnat, boshqaruv, infratuzilma, iqtisodiy, moliyaviy va ishlab chiqarish quvvatlarining unumdorlik koeffitsiyenti oyiga 5 948 506 248 so‘mni tashkil etmoqda.

Risklar doimo o‘zaro bog‘liq bo‘lgan unumdorlik koeffitsiyenti investitsiya loyihalarini tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilishda investorlar va rahbar uchun zarur omillaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirish”** nomli yakuniy to‘rtinchi bobida muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi korxonasiga innovatsion jarayonlarni joriy etish orqali investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni takomillashtirish metodologiyasi va O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari taqdim etilgan.

Moliyaviy-iqtisodiy mezonlarni baholashga asoslangan usullar, odatda, har qanday innovatsion loyiha bo‘yicha qaror qabul qilish uchun an’anaviy bo‘lgan ko‘rsatkichlar, usullar va mezonlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha texnik-iqtisodiy asoslash uchun qo‘llaniladigan universal qo‘llanma mavjud emas. Dunyoda loyihani asoslash jarayonini tizimlashtirish va

<sup>27</sup> Nechaev A., Antipina O. Analysis of risk management in innovation activity process, September 2017. (<https://www.researchgate.net/publication/320747924>)

<sup>28</sup> Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

integratsiyalash imkonini beruvchi turli usullar mavjud. Shu munosabat bilan mamlakatimizda innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari tahliliga to'xtalib o'tish o'rinli. 14-jadvalda ishlab chiqarishda innovatsion jarayondan foydalangan holda investitsiya loyihasining samaradorligi, investitsion loyihalarning boshlang'ich qiymatiga kombinatning o'z mablag'lari hissasi, jalb qilingan mablag'lar va yaratilgan yangi ish o'rinlari soni ko'rsatkichlaridan foydalangan holda tahlil qilingan.

#### 14-jadval

### Investitsiya loyihalari, jalb qilingan mablag'lar, kreditlar va yaratilgan yangi ish o'rinlari soni uchun "O'zmetkombinat" AJning o'z mablag'lari o'zaro bog'liqligi tahlili <sup>29</sup>

Bog'liq o'zgaruvchi: LOG (ishlab chiqarish)

Usul: Eng kichik kvadratlar

Kiritilgan kuzatishlar: 20

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Stand.xatolik	t- statistikasi	Ehtimollik
LOG(Investitsiya)	0.1209	0.1340	0.9023	0.3803
LOG (yangi yaratilgan ish joylari)	6.2265	1.1881	5.2406	0.0001
LOG (Qarz mablag'lari)	-1.3291	0.4206	-3.1599	0.0061
R-squared (R-kvadrat)	0.9627	Mean dependent var (o'zgaruvchan.)		17.0387
Adjusted R-squared (Sozlangan R-kvadrat)	0.9557	S.D. dependent var (ko'rsatkichlar)		2.0152
S.E. of regression (regresiyaa)	0.4238	Akaike info criterion (Akaike)		1.2977
Sum squared resid (Qoldiq kvadratidagi summa)	2.8737	Schwarz criterion (Shvartst)		1.4969
Log likelihood (Log ehtimollik)	-8.9777	Hannan-Quinn criter. (Hannan Quinn)		1.3366
F-statistic (F-statistika)	137.8686	Durbin-Watson stat (Durbin-Watson)		1.5455
Prob (F-statistic) Ehtimollik. (F-statistika)	0.0000			

Hisob-kitoblarga ko'ra, formula quyidagicha taqdim etiladi:

$$\text{LOG (ishlab chiqarish)} = 25,5720 + 0,1209 * \text{LOG (investitsiya)} + 6,2265 * \text{LOG (yangi ish o'rinlari)} - 1,3291 * \text{LOG (qarzga olingan mablag'lar)}$$

Tahlil natijalariga ko'ra, ta'kidlash mumkinki, "O'zmetkombinat" AJning loyihalar bo'yicha samarali faoliyati tahlilida, muallif tomonidan qarz mablag'lari bo'yicha manfiy qiymatga ega bo'lgan bitta ko'rsatkich aniqlandi (-1,3291), garchi ushbu ko'rsatkich yakuniy natijada transformatsiyalanadi va butun ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oldingi keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish metodologiyasini takomillashtirish maqsadida investitsiya loyihasining har bir hayotiy siklini amalga oshirish jarayonida **bosqichma-bosqich ekspertizadan o'tkazishni** taklif etamiz, agarda ma'lum bir sikl jarayoni

<sup>29</sup> "O'zmetkombinat" AJ axborot hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

muvaffaqiyatli bo'lsa, keyingi bosqichga o'tkazmaslik yoki umuman to'xtatish uchun choralar ko'rilishi taqozo etiladi.

Bu esa, investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish usullarining takomillashtirilishi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ehtimoliy kattaroq iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olish imkonini beradi va ishning dolzarbligini belgilaydi.

Axborot texnologiyalarining (AT) ekspert faoliyatiga joriy etilishi shaxsiy kompyuterlarning keng qo'llanilishiga o'tish va ularni kompyuter tarmoqlariga birlashtirish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi va Internetlariga kirishni ta'minlaydigan modem texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Axborot resurslarini jalb qilish, ekspertlar bilan onlayn muloqot rejimini tashkil etish ekspertizalarni o'tkazish vaqtini qisqartiradi, ekspert xulosalarining asosligini oshiradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar qatorida bir nechta jihatlarni ajratish mumkin:

1. Ta'lim tizimi raqamli iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar tayyorlash uchun yuqori salohiyatga ega.

2. Raqamli iqtisodiyotning samarali infratuzilmasini yaratish uchun o'ziga xos tashkiliy va texnologik yechimlar mavjud.

3. Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy prinsiplari asosida aniq holatlarning integratsiyasi va rivojlanishi sinergetik samara yaratadi va umumiy iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Raqamli qurilmalardan foydalanishning ko'payishi "katta ma'lumotlar" (big data) tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi. Ma'lumotlar oqimlari doimiy ravishda ko'payib bormoqda va bu real vaqt rejimida uzatilmoqda, ular qayta ishlanadi va tez qaror qabul qilish uchun katta yordam qiladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbai - muloqot, fikr va tajriba almashish imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat. Shuni hisobga olgan holda, Internet-platformalar biznes yaratish, sarmoya kiritish, xodimlar, hamkorlar, resurslar va bozorlarni qidirish uchun kuchlarni birlashtirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar har qanday davlat taraqqiyotining asosiy rag'batlantiruvchi omillari bo'lgan xodimlarni tayyorlash, bilim almashish, innovatsion g'oyalarni, jumladan, ijtimoiy sohada ham asosiy rol o'ynashi mumkin.

Ekspert xizmatlari faoliyatini axborot bilan ta'minlashni kelgusida yanada rivojlantirish va takomillashtirish, muallif fikricha, bir nechta yo'nalishlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Axborotni yig'ish, saqlash, tahliliy qayta ishlash va foydalanuvchilarga taqdim etish muammolarini hal qilish uchun har xil turdagi va maqsadlardagi axborot resurslarini (ma'lumotlar bazalarini) ko'paytirish. Bu o'rinda ekspertlar haqidagi ma'lumotlar bazalari, dasturlar va loyihalar, shuningdek, normativ hujjatlar haqida so'z bormoqda.

Telekommunikatsion kompyuter tarmoqlaridan foydalanish quyidagilarni bilan ta'minlaydi:

masofaviy ma'lumotlar bazalari va hisoblash tizimlariga, shu jumladan, xorijiy ma'lumotlar bazalariga kirish tartibi;

katta ma'lumotlar massivlari va fayllarni uzatish rejimi;

elektron pochta (EP) rejimi. EPdan foydalanish bir necha daqiqada ekspertlarga ekspertiza obyektini tavsiflovchi materiallar bilan individual ishlashga imkon beradi, bu boshqa shaharlardagi mutaxassislarni ishga ulash uchun ekspert xizmatlarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va rejalashtirilgan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi;

telekonferensiya rejimi, bu birlashtirilgan ekspert xulosasini real vaqt rejimida muhokama qilish va umumiy fikrni ishlab chiqish imkonini beradi.

Muammoli vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan taqdimot vositalarini yaratish, bu vaziyatni har tomonlama tahlil qilish manfaatlarida mavzu sohasining tegishli sohalarida muammoni alohida semantik axborot bloklariga ajratishni amalga oshirish va namoyish qilish imkonini beradi.

Ekspertning avtomatizatsiyalashtirilgan ish orinlarini yaratish. Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatiki, davlat boshqaruvi organlarining ekspert va tahliliy bo'linmalari samarali avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishga tayyorgarlik tizimlari bilan hozircha ta'minlanmagan.

Shuni qayd etish lozimki, raqamli iqtisodiyot rivojining bosh manbai – kommunikatsiya, g'oyalar va tajriba almashish imkoniyatining ta'minlanishi. Internetdagi maydonlar biznesni tashkil etish, sarmoya kiritish, xodimlar, sheriklar, resurslar va sotish bozorini izlashda kuchlarni birlashtirish imkonini yaratadi. Raqamli texnologiyalar xodimlarni o'qitish, bilimlar almashish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ham, shuningdek, har bir davlat rivojlanishini rag'batlantiruvchi omil bo'lgan ijtimoiy sohada ham muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sohasida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda dasturlash SI (sun'iy intellekt), semantik modellashtirish va boshqa fanlar bilan birga, kriptografiya va kriptoanalizga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim, chunki ushbu metodlar hozirni o'zida keng qo'llanish sohasiga ega va bu spektr bundan keyin ham kengayib boraveradi.

Ushbu jarayonlar nafaqat investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonini takomillashtirishga, balki butun davlat rivojiga ham xizmat qiladi.

## **XULOSA**

1. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shuni ta'kidlash kerakki, investitsiya loyihasining ekspertizasi loyihaning individual investitsiya sifatlarini chuqur tahlil qilish va baholash bo'lib, kelajakda nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy, ekologik va innovatsion jihatdan ham foydali bo'ladi va ushbu bilim sohasiga jalb qilingan yuqori malakali mutaxassislardan tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha samaradorligini to'g'ri hisoblashni amalga oshirish tavsifa etiladi: atrof-muhitga ta'sirni baholash; mahsulot yoki xizmatlarning bozordagi jozibadorligi; loyihaning milliy iqtisodiyotga umumiy ta'sirini vijdonan iqtisodiy tahlil qilish; loyihaning ijtimoiy ta'sirini baholashning ishonchligi; loyiha amalga oshirishning tashkiliy imkoniyatlari.

2. Ekspertizalarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlarning farmoyishlari asosida ekspert va tahliliy vazifalarni bajaruvchi ekspert, ekspert maslahat va ilmiy xizmatlar (kengashlar, qo'mitalar, komissiyalar) muhim ta'sir ko'rsatadi. Xorijdagi bunday ekspertiza tashkilotlarining muhim xususiyati davlat

ekspertiza tizimi bilan faol hamkorlik qiluvchi mustaqil ekspert va konsalting firmalar rivojlangan tarmog'ining mavjudligi bo'lib, ularda yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassis-ekspertlar ishlaydi.

3. Investitsiya va innovatsion loyihalarning dastlabki hamda bosqichma-bosqich ekspertizasini o'tkazishning uslubiy ta'minoti ishlab chiqildi. Dastlabki ekspertiza bosqichi, aniq istiqbolsiz loyihalarni batafsil baholashga ko'ra, keraksiz ishlarning oldini olish uchun zarurdir. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga emas, balki loyihani amalga oshirishning texnik, texnologik, tashkiliy, huquqiy va boshqa jihatlariga qaratilishi kerak.

4. Dastur va loyiha hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishning uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Kompleks ekspertiza obyektini (dasturni, loyihani) iqtisodiy tahlil usullari va boshqa fanlar yordamida dastur hamda loyiha yechimlarining rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga muvofiqligi darajasini tizimli o'rganish jarayoni sifatida zarur va quyidagilardan iborat:

an'anaviy amaliyotdan kelib chiqqan va xususiy (ixtisoslashtirilgan) ekspert vazifalarini birlashtirishga va ushbu muammolarni hal qiladigan turli mutaxassislikdagi ekspertlarning hamkorligiga, tizim qismlarini yagona bir butunga integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan, rahbariyat tomonidan ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun axborot tayyorlash maqsadida;

ekspertiza obyektini yaxlit ko'rib chiqish, shuningdek, tizimli yondashuv g'oyalarini qo'llash bilan bog'liq aniq uslubiy pozitsiya;

izchillik, ko'p qirralilik, ko'p omilli tadqiqot, ko'rsatkichlar ierarxiyasi va ko'p mezonli baholash tamoyillariga asoslangan ekspertiza obyektini o'rganishning uslubiy qoidalari, uslubiy texnikasi, tartiblari va usullari majmui.

5. Tadqiqotimizda tizimli yondashuv nuqtai nazaridan keng qamrovli ekspertizaning ierarxik ko'rinishi taklif etilgan. Murakkab ekspertizaning ierarxik ko'rinishi, uni quyi tizimlar majmuasiga bo'linishni o'z ichiga olgan tizim - ekspertiza texnologiyasi bosqichlari shaklida. Har bir quyi tizim elementlarga ajralishi mumkin va kompleks ekspertizaning o'zi yuqori darajadagi tizimning quyi tizimi - qaror qabul qilish tizimidir.

6. Innovatsion boshqaruv faoliyati amaliyotida innovatsion loyiha samaradorligini baholashning yuqoridagi metodologiyasini qo'llash innovatsion loyihani amalga oshirish uchun tanlashning maqsadga muvofiqligi to'g'risida boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonini rasmiylashtiradi. Taklif etilayotgan uslubiy yondashuv innovatsiya muvaffaqiyati mezonlarining maqbulligini, korxonaning kelajakdagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasini va innovatsiyaning ahamiyatini hisobga olgan holda, muayyan innovatsion loyiha foydasiga moliyalashtirishning muqobil variantlarini yanada asosli tanlash imkonini beradi.

7. Korxonalarining innovatsion salohiyatini va risklarni zararsizlantirish va minimallashtirish usullarini ifodalovchi risklarni boshqarishning innovatsion modellaridan foydalanish zarur. Muhim jarayon - turli xil xavf tasniflarini yaratish orqali risklarni boshqarishni takomillashtirishdir. Umumiy xavf tasnifini yaratish - bu innovatsion xavfni boshqarishning eng yaxshi usulini topishga yordam beradigan xavfni baholash tizimi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, amaliy tadqiqotlarning 15%i potensial iqtisodiy samaradorlikni va 85%i kutilganini tavsiflaydi. Investitsion loyihalarning innovatsion jarayonlarni amalga oshirish samaradorligini aniqlash

uchun investitsiya loyihalarini tanlashda risklarni tahlil qilish eng yaxshi yechimga ega. Risklarni tahlil qilishda integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish zarur. Ushbu yondashuv loyihaning mumkin bo'lgan natijalari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

8. Kompleks ekspertizani o'tkazishda noaniqlik bilan bir qatorda, ekspertlar ko'p mezonli muammolarni hal qilish bilan ham shug'ullanishlari zarurligini hisobga olib, amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan ko'p mezonli tahlil usullarini qayta ko'rib chiqish va tizimlashtirish amalga oshirildi; tayanch va leksikografik tartiblash sifatida konsessiya usulining kombinatsiyasi bo'lgan analitik ierarxiya usuli tanlangan. Tadqiqotimizdagi taklif etilgan innovatsion loyihalarni ko'p mezonli kompleks ekspert baholash usuli kuchli tomonlarning kombinatsiyasiga va ierarxiya tahliliga asoslanadi. Loyihalarni ko'p mezonli ekspert baholash beshta arterial blok (umumiy mezon) bo'yicha amalga oshiriladi: mahsulotlarning ilmiy-texnik ahamiyati (sifati); loyihaning iqtisodiy samaradorligi; mahsulotning raqobatbardoshligi va mahsulot xavfsizligi; loyihaning mumkinligi.

9. Usullarning kombinatsiyasidan foydalanish nafaqat biznes innovatsiyalari yoki tadqiqot natijalari bo'yicha bevosita natijalarni o'lchashga, balki kengroq tizimda hamkorlik va hamkorlik namunalarini boshqarish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Hamkorlikning aniq asosini yaratish va ma'lum bir davr mobaynida hamkorlikni qayd etuvchi monitoring tizimini yuritish zarur. Va baholashda asosiy nuqta - vaqtni tanlash, bu yerda o'z vaqtida qayta tahlil qilish yoki uzoq muddatli natijalarni baholash uchun keyingi tahlilni o'tkazish kerak.

10. KPI (Key Performance Indicators) ni o'rnatish - kompaniya yoki alohida bo'linma faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichi. Ushbu samaradorlik ko'rsatkichlari biznesdagi ta'sirning qonuniyatlari va o'zaro omillarini - ba'zi ko'rsatkichlarning (samaradorlik natijalari) boshqalarga bog'liqligini ko'rish uchun maqsadlar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini o'rnatadigan balanslangan ko'rsatkichlar kartasining bir qismidir. Bu jonli ijro boshqaruv paneli hisobotlari uchun talab qilinadi. KPI boshqaruv paneli dasturiy ta'minoti korxonalariga ma'lumotlarni tahliliy va ma'lumotga aylantirish imkonini beradi. Kompaniyalar tezroq va aniqroq ma'lumotlarni to'plash, tezkor ishlash hisobotlari va KPI bajarilganda yoki unga erishilganda ogohlantirishlar oladi. KPI boshqaruv paneli dasturiy ta'minoti biznes ma'lumotlarini markazlashtiradi va real vaqt rejimida hisobot berishni soddalashtiradi va ularga doimo raqobatdosh ustunlik beradi.

11. Raqamli hukumat jarayonining joriy etilishi davlat organlariga sifatli xizmatlar ko'rsatish va barcha sohalarda aholi bilan, shuningdek, investitsion loyihalar ekspertizasida ham ochiq bo'lish imkonini yaratadi. U hukumatga atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni qisqartirishga, shu bilan birga, tabiiy resurslarni samarali boshqarishga, iqtisodiy o'sishga va iqtisodiyotning jamoat sektorlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuni qayd etish lozimki, raqamli iqtisodiyot rivojining bosh manbai – kommunikatsiya, g'oyalari va tajriba almashish imkoniyatining ta'minlanishi. Internetdagi maydonlar biznesni tashkil etish, sarmoya kiritish, xodimlar, sheriklar, resurslar va sotish bozorini izlashda kuchlarni birlashtirish imkonini yaratadi. Raqamli texnologiyalar har qanday davlat taraqqiyotining asosiy rag'batlantiruvchi omillari bo'lgan xodimlarni tayyorlash, bilim almashish, innovatsion g'oyalarni, jumladan, ijtimoiy sohaning ham yuqori darajada taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**БЕКИМБЕТОВА ГУЛНОРА МАРАТОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПРОВЕДЕНИЯ  
ЭКСПЕРТИЗЫ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ  
УЗБЕКИСТАН**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

**Ташкент – 2023**

**Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2023.1.DSc/Iqt449.**

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный консультант:</b>	<b>Карлибаева Рая Хожабаевна</b> доктор экономических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Бурханов Ақтам Усманович</b> доктор экономических наук, профессор <b>Зайналов Джахонгир Расулович</b> доктор экономических наук, профессор <b>Хамидулин Михаил Борисович</b> доктор экономических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Ташкентский финансовый институт</b>

Защита диссертации состоится в \_\_\_\_ часов « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 г. на заседании Научного совета №DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 232-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № \_\_\_\_). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 года.

(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 года).

**М.П. Эшов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**У.В. Гафуров**

Секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель Научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В процессе глобализации в мире проведение экспертизы инвестиционных проектов, начало применяться в 70-х годах прошлого века, в качестве одного из обязательных элементов государственного управления и экономической структуры. «Появления экспертных технологий в рамках программно-целевого подхода на практике формирования и реализации бюджета развитых стран относится к концу 50-х — началу 60-х годов, и они до сегодняшнего дня совершенствуются и широко применяются»<sup>1</sup>. При этом положительная динамика инвестиционного развития наблюдается во многих отраслях мировой экономики. При этом количество разнотипных проектов увеличивается, и оценить их результаты при ограниченных стоимостных показателях становится все сложнее. В связи с тем, что многие проекты, принятые к реализации, не могут достичь поставленных целей из-за ошибок в определении результатов проекта, можно говорить о необходимости совершенствования методики проведения экспертизы инвестиционных проектов.

Современная эпоха экономического развития стран мира характеризуется подходом к прекращению экстенсивных факторов развития. Поэтому будущий рост требует более эффективного использования финансовых ресурсов как на государственном уровне, так и на уровне предприятий всех отраслей. Решения о финансировании крупных инвестиционных проектов принимаются на уровне государства и предприятий. При этом учитывается оценка возможных последствий реализации этих проектов, и они стремятся обеспечить эффективное использование финансовых ресурсов и достижение поставленных целей. И государство, и инвесторы используют экспертизу для получения объективной информации о реализуемости и перспективности проектов. Экспертиза важна как метод оценки обоснованности принимаемых решений по реализации проектов. С этой целью экспертная оценка проектов для получения объективной оценки и минимизации рисков является одним из приоритетов данного научного исследования.

Узбекистан приоритетное внимание уделяет привлечению иностранных и национальных инвесторов во все аспекты экономики, реализацию инвестиционных проектов, в частности, осуществлению широкомасштабных реформ по внедрению рыночных механизмов. “...Укрепление экономических связей Узбекистана с другими странами и дальнейшее повышение престижа нашей страны на международной арене путем широкой поддержки экономического развития, увеличения объемов привлекаемых инвестиций является одной из наших приоритетных задач в области экономики..”<sup>2</sup> При

---

<sup>1</sup> Eric E. Otenyo, Nancy S. Lind “Comparative public administration: the essential readings”, Research in public policy analysis and management Volume 15., 2006.

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh.M. Biz birgalikda, erkin, demokratik va obod O‘zbekiston davlatini quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

этом особый упор делается на качественную разработку, согласование, утверждение и экспертизу предпроектной и проектной документации по проектам, а также рассмотрение необходимых договоров с местными и иностранными инвесторами и организациями в установленном порядке<sup>3</sup>. Исходя из этого, одним из наиболее актуальных вопросов является обоснование научных предложений и практических рекомендаций, направленных на усиление механизма экспертизы в законодательстве, что определяет актуальность научного обоснования, особенно в процессе принятия инвестиционных решений, имеющих общественное значение. В частности, поскольку экспертная деятельность имеет свои задачи и особенности, зачастую считается необходимым адаптировать экспертные технологии к конкретным объектам и сферам экономической деятельности, включая анализ и оценку качества и эффективности инвестиционных программ.

Настоящее диссертационное исследование послужит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», №ПП-2831 от 14 марта 2017 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности проектных работ в базовых отраслях экономики», ПК-4273 от 9 апреля 2019 года «О дополнительных мерах по ускорению инвестирования и реализации инвестиций», ПК-332 от 26 июля 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию Порядка проведения экспертизы закупочной документации и технических заданий и договоров на предпроектные, государственные закупки инвестиционных и инфраструктурных проектов, а также Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 1013 от 14 декабря 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию системы финансового оздоровления государственных предприятий» и в других нормативно-правовых документах для выполнения задач, определенных при экспертизе инвестиционных проектов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Настоящее диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

